

UDK: 373.2

## DIDAKTIK O'YINLAR VOSITASIDA BOLALARNING TA'LIMYI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYASI

*Mahmudova Sevara To'lanboy qizi*

*Namangan davlat pedagogika instituti, Namangan, O'zbekiston  
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi MTM BU-25 guruh 1-bosqich talabasi*

*E-mail: [sevaraxonmahmudova17@gmail.com](mailto:sevaraxonmahmudova17@gmail.com)*

*Tel: (95) 707 54 92*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'limiy faoliyatini rivojlantirishda didaktik o'yinlarning o'рни va ahamiyati ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil etiladi. Tadqiqotda didaktik o'yinlarning pedagogik mohiyati, ularning bolalar bilish jarayonlariga ta'siri, motivatsiyani oshirishdagi roli hamda ta'lim samaradorligini ta'minlashdagi imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, maqolada didaktik o'yinlar asosida tashkil etilgan ta'lim texnologiyasining bosqichlari, mazmuni va metodik asoslari ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari didaktik o'yinlar bolalarning intellektual rivoji, mustaqil fikrlashi va ijtimoiy faolligini sezilarli darajada oshirishini tasdiqlaydi.

**Kalit so'zlar:** didaktik o'yin, maktabgacha ta'lim, ta'lim texnologiyasi, bolalar rivoji, bilish faoliyati, pedagogik innovatsiya, o'yin faoliyati.

## ДИДАКТИЧЕСКИЕ ИГРЫ КАК СРЕДСТВО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ДЕТЕЙ

*Махмудова Севара Туланбой кизи*

*Наманганский государственный педагогический институт,  
Наманган, Узбекистан*

*Направление: дошкольное образование, группа MTM BU-25 Студент 1 курса*

*E-mail: [sevaraxonmahmudova17@gmail.com](mailto:sevaraxonmahmudova17@gmail.com)*

*Tel: (95) 707 54 92*

**Аннотация:** В статье рассматривается роль дидактических игр в развитии образовательной деятельности детей дошкольного возраста. Раскрываются педагогическая сущность дидактических игр, их влияние на познавательные процессы, мотивацию и эффективность обучения. Особое внимание уделено технологии организации обучения на основе дидактических игр. Результаты исследования показывают, что использование дидактических игр способствует развитию интеллектуальных, коммуникативных и социальных навыков детей.

**Ключевые слова:** дидактическая игра, дошкольное образование, образовательная деятельность, педагогическая технология, развитие ребенка.

## TECHNOLOGY FOR IMPROVING CHILDREN'S EDUCATIONAL ACTIVITY THROUGH DIDACTIC GAMES

***Mahmudova Sevara To'lanboy qizi***

*Namangan State Pedagogical Institute, Namangan, Uzbekistan*

*Field of study: Preschool Education, MTM BU-25 group 1st-year student*

*E-mail: [sevaraxonmahmudova17@gmail.com](mailto:sevaraxonmahmudova17@gmail.com)*

*Tel: +998 (95) 707 54 92*

**Annotation:** *This article analyzes the role of didactic games in improving the educational activity of preschool children. It examines their pedagogical essence, influence on cognitive processes, and effectiveness in increasing learning motivation. The study also presents a structured technology for organizing teaching based on didactic games. The results confirm that didactic games significantly enhance children's intellectual, social, and communicative development.*

**Keywords:** *didactic games, preschool education, learning activity, pedagogical technology, child development.*

## KIRISH

Mamlakatimizda davlat va jamiyatning barcha sohalari xususan, maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimida ham bir qator amaliy islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-sonli Qaroriga asosida ishlab chiqilgan "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da sohani rivojlantirishga oid bir qator vazifalar belgilab berilgan [1].

Zero, maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'limning muhim bo'g'ini sifatida shaxs kamolotining dastlabki bosqichini tashkil etadi. Aynan ushbu davrda bolalarda bilish faoliyati, tafakkur, nutq, ijtimoiy munosabatlar va motivatsiya shakllanadi. Shu bois mazkur bosqichda qo'llaniladigan pedagogik yondashuvlar alohida ilmiy asoslangan bo'lishi zarur.

Zamonaviy pedagogika fanida bolalar faoliyatining yetakchi turi sifatida o'yin alohida e'tirof etiladi. Didaktik o'yinlar esa o'yin va ta'limni uyg'unlashtirgan holda samarali pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi. Ular orqali bolalar bilimlarni majburlashsiz, tabiiy ravishda o'zlashtiradilar.

Bugungi kunda maktabgacha ta'limda innovatsion texnologiyalarni joriy etish jarayonida didaktik o'yinlar asosidagi ta'lim texnologiyasini ishlab chiqish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Mazkur maqola aynan shu muammoni ilmiy asosda yoritishga bag'ishlangan.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Didaktik o'yinlar muammosi pedagogika va psixologiya fanlarida keng o'rganilgan. Xususan, mashhur rus psixologi va pedagogi Lev Semyonovich Vygotskiy bolalar rivojida o'yin faoliyatining yetakchi rolini asoslab bergan. Unga ko'ra, o'yin jarayonida bola "yaqin rivojlanish zonasi"ga kiradi va o'z imkoniyatlaridan yuqori darajada faoliyat ko'rsatadi.[1]

Bolalar psixologiyasi bo'yicha mutaxassis bo'lgan Daniil Borisovich Elkonin esa o'yin faoliyatini bolalar psixik rivojlanishining asosiy omili sifatida talqin etadi. Uning fikricha, didaktik o'yinlar orqali bola ijtimoiy rollarni o'zlashtiradi va tafakkuri rivojlanadi.[2]

Zamonaviy tadqiqotchilardan D.R. Babayeva – didaktik o'yinlar orqali bolalarda nutq o'stirish metodikasiga e'tibor bergan bo'lsa [3], N.M. Kayumova – didaktik o'yin texnologiyalariga to'xtalib o'tadi.[4] Umuman olganda, yuqoridagi tadqiqotlarda didaktik o'yinlarning ta'lim samaradorligini oshirishdagi rolini alohida ta'kidlaydilar. Biroq mavjud tadqiqotlarda didaktik o'yinlar asosidagi ta'lim texnologiyasining tizimli modeli yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Mazkur maqola aynan ushbu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot ishida tizimlilik, izchillik, faoliyatga yo'naltirilganlik, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv kabi tadqiqot tamoyillariga tayangan holda kuzatish, pedagogik tajriba, suhbat, diagnostik baholash, statistik tahlil kabi ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot 5–6 yoshli bolalar ishtirokida olib borildi. Tajriba ikki bosqichda, xususan boshlang'ich diagnostika va didaktik o'yinlar asosida ta'lim jarayonini tashkil etish bosqichlarida amalga oshirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'limiy faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan didaktik o'yinlar asosidagi maxsus pedagogik texnologiya ishlab chiqildi va amaliyotda sinovdan o'tkazildi. Mazkur texnologiya bolalarning yosh, psixologik va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tizimli

ravishda tashkil etildi hamda o'zaro uzviy bog'liq bosqichlardan iborat holda joriy qilindi.

Birinchi bosqich – maqsadni belgilash bosqichi bo'lib, unda har bir didaktik o'yinning aniq ta'limiy va rivojlantiruvchi maqsadlari belgilab olindi. Ushbu jarayonda o'yinlar tasodifiy emas, balki muayyan pedagogik vazifani hal etishga yo'naltirilgan holda tanlandi. Jumladan, ayrim o'yinlar orqali bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish, boshqalari orqali nutqni rivojlantirish, yana boshqalari orqali esa mantiqiy fikrlash va diqqatni jamlash ko'nikmalarini rivojlantirish maqsad qilib olindi. Bu bosqichning asosiy ahamiyati shundaki, u butun ta'lim jarayonining maqsadga yo'naltirilganligini ta'minladi va pedagog faoliyatining aniq yo'nalishda tashkil etilishiga zamin yaratdi.

Ikkinchi bosqich – mazmunni tanlash bosqichi hisoblanib, bunda didaktik o'yinlarning mazmuni bolalarning yosh xususiyatlari, individual qobiliyatlari hamda mavjud bilim darajasiga mos ravishda ishlab chiqildi. Mazmunni tanlashda o'yinlarning qiziqarli, tushunarli va bolalar uchun motivatsion jihatdan jozibador bo'lishiga alohida e'tibor qaratildi. Shu bilan birga, o'yin topshiriqlari oddiydan murakkabga tamoyili asosida tuzilib, bolalarda bosqichma-bosqich bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qildi. Mazkur bosqichda didaktik materiallar, vizual vositalar, rangli kartochkalar, predmetli o'yin elementlari keng qo'llanildi, bu esa bolalarning idrok etish jarayonini yanada faollashtirdi.

Uchinchi bosqich – jarayonni tashkil etish bosqichi bo'lib, unda didaktik o'yinlar bevosita ta'lim jarayoniga joriy etildi. O'yinlar turli shakllarda – guruh, juftlik va individual tarzda tashkil qilindi. Guruh o'yinlar bolalarda hamkorlik, jamoada ishlash va muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilgan bo'lsa, juftlikdagi o'yinlar o'zaro yordam va fikr almashish jarayonini kuchaytirdi. Individual o'yinlar esa har bir bolaning shaxsiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda ularning mustaqil faoliyatini rivojlantirishga qaratildi. Ushbu bosqichda pedagogning roli yo'naltiruvchi va tashkil etuvchi sifatida namoyon bo'lib, u bolalarni faol ishtirok etishga undadi, zarur hollarda yordam ko'rsatdi va o'yin jarayonini boshqarib bordi.

To'rtinchi bosqich – baholash bosqichi bo'lib, unda didaktik o'yinlar orqali erishilgan natijalar tizimli ravishda tahlil qilindi. Baholash jarayoni faqatgina yakuniy natijalarni emas, balki bolalarning o'yin jarayonidagi faolligi, mustaqilligi, qiziqishi va ishtirok darajasini ham qamrab oldi. Natijalar kuzatish, suhbat va maxsus diagnostik topshiriqlar orqali aniqlanib, ularning dinamikasi solishtirildi. Bu esa didaktik o'yinlar asosida tashkil etilgan ta'lim texnologiyasining samaradorligini aniq baholash imkonini berdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, mazkur texnologiyani qo'llash natijasida bolalarning ta'limiy faoliyatida sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Xususan, bolalarning bilimlarni o'zlashtirish darajasi oshdi, ularning mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlandi, nutq faolligi va muloqotga kirishish ko'nikmalari yaxshilandi. Bundan tashqari, o'yin jarayonida bolalarda o'ziga ishonch, tashabbuskorlik va ijodkorlik kabi muhim sifatlar shakllandi.

Shuningdek, didaktik o'yinlar orqali tashkil etilgan ta'lim jarayoni bolalarda yuqori darajadagi motivatsiyani yuzaga keltirdi. An'anaviy mashg'ulotlarga nisbatan o'yin asosidagi faoliyat bolalarda ko'proq qiziqish uyg'otib, ularni faol ishtirok etishga undadi. Bu esa ta'lim samaradorligining oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatdi.

Umuman olganda, olib borilgan tajriba-sinov ishlari didaktik o'yinlar asosida ishlab chiqilgan ta'lim texnologiyasi maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'limiy faoliyatini takomillashtirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini to'liq tasdiqladi.

## MUHOKAMA

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, didaktik o'yinlar nafaqat ta'lim vositasi, balki rivojlantiruvchi texnologiya ham hisoblanadi. Ularning samaradorligi o'yin orqali tabiiy o'rganish, yuqori motivatsiya, faol ishtirok, emotsional muhit kabi omillar bilan izohlanadi. Shuningdek, tadqiqot natijalari boshqa olimlarning qarashlari bilan ham mos keladi va ularni amaliy jihatdan tasdiqlaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Amalga oshirilgan tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

*Birinchi*dan, didaktik o'yinlar maktabgacha ta'limda eng samarali pedagogik vositalardan biridir hisoblanadi;

*Ikkinchi*dan, ular bolalarning ta'limiy faoliyatini sezilarli darajada faollashtiradi.

*Uchinchi*dan, didaktik o'yinlar asosida ishlab chiqilgan texnologiya ta'lim sifatini oshiradi.

Yuqridagi fikr va mulohazalarga tayangan holda, tadqiqot doirasida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- didaktik o'yinlarni o'quv dasturlariga keng joriy etish;
- pedagoglar uchun metodik qo'llanmalar ishlab chiqish;
- innovatsion o'yin texnologiyalarini yaratish.

Umuman olganda, didaktik o'yinlardan maqsadli va tizimli foydalanish maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlarni amaliyotga joriy etishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-sonli "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori. // <https://lex.uz/docs/-4327235> [Murojaat qilingan sana: 11.04.2026]
2. Выготский Л. С. Психология развития ребенка. – М: Изд-во Смысл, Изд-во Эксмо, 2004. – 512 с.
3. Д. Б.Эльконин. Психология игры. – М.: "Педагогика", 1978. – 304 с. // <https://dytpsycholog.com/wp-content/uploads/2015/01/elkonin-psihologiya-igry.pdf> [Murojaat qilingan sana: 14.04.2026]
4. Babayeva D.R. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. (Darslik). – T.: "Barkamol fayz media", 2018. – 432 b.
5. Kayumova N.M. Maktabgacha ta'lim-tarbiya pedagogikasi. (O'quv qo'llanma). – Toshkent: "METHODIST NASHRIYOTI", 2024. – 306 bet.